

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.31/30.12.2019.YU.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

KALANDAROV MAKSUD MAXMUDOVICH

**O‘QOTAR QUROL, O‘Q-DORILAR, PORTLOVCHI MODDALAR YOKI
PORTLATISH QURILMALARI G‘AYRIQONUNIY MUOMALASIGA
QARSHI KURASHISHNING JINOYAT-HUQUQIY CHORALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya.
Jinoyat-ijroiya huquqi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Kalandarov Maksud Maxmudovich

О‘qotar qurol, о‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish 3

Каландаров Максуд Махмудович

Совершенствование уголовно-правовых мер борьбы с незаконным оборотом огнестрельного оружия, боеприпасов, взрывчатых веществ или взрывных устройств 36

Kalandarov Maksud Makhmudovich

Improvement of criminal law measures to combat illicit trafficking in firearms, ammunition, explosive substances or destructive devices 71

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 76

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.31/30.12.2019.YU.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

KALANDAROV MAKSUD MAXMUDOVICH

**O‘QOTAR QUROL, O‘Q-DORILAR, PORTLOVCHI MODDALAR YOKI
PORTLATISH QURILMALARI G‘AYRIQONUNIY MUOMALASIGA
QARSHI KURASHISHNING JINOYAT-HUQUQIY CHORALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya.
Jinoyat-ijroiya huquqi**

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.DSc/Yu76 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Akademiya Ilmiy kengashi veb-sahifasi (<https://akadmvd.uz/oz/ads/elon-j-24-05-2023>) va Ziyonet axborot ta’lim portalida (<http://library.ziyonet.uz/uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy konsultant:

Radjabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustambayev Mirzayusuf Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasulev Abdulaziz Karimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 9-iyun kuni soat 14:30dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-17-53; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1317-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “26” may kuni tarqatildi.

(2023-yil “23” maydagi 8-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Dj.X. Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori,
professor

M.Z.Ziyodullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda o‘qotar qurol, ularning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining haddan tashqari g‘ayriqonuniy muomalaga kiritilayotganligi xalqaro hamjamiyat uchun dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurgan¹. Jeneva small Arms Survey xalqaro tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har yili 650 mingga yaqin o‘qotar qurollar qonuniy manbalardan g‘ayriqonuniy muomalaga kiritilmoqda². G‘ayriqonuniy muomalada bo‘lgan ushbu ashyolar zo‘ravonlik jinoyatlari, ayniqsa qasddan odam o‘ldirishni sodir etishda, jinoiy uyushgan guruhlar tomonidan qurolli ziddiyatlar va terrorizm aktlarida keng qo‘llanilmoqda. Natijada, dunyoda har yili 200-300 ming kishi o‘qotar qurollarni qo‘llash sababli vafot etmoqda, ushbu o‘limlarning aksariyati ulardan g‘ayriqonuniy foydalanish oqibatidadir³. Mazkur holatlar dunyo hamjamiyatidan 2030-yilgacha o‘qotar qurolni, uning asosiy qismlari va o‘q-dorilarini, portlovchi moddalarni yoki portlatish qurilmalarini g‘ayriqonuniy muomala va ishlab chiqarishning texnik yutuqlari va usullarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishni talab etmoqda⁴.

Jahonda o‘qotar qurol, ularning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarga qarshi kurashish va ularga chek qo‘yishga qaratilgan muhim choralar ko‘rilmoqda. Xususan, BMTning “Kichik va yengil o‘qotar qurollarning g‘ayriqonuniy savdosi to‘g‘risida”gi Nyu-York konferensiyasida qabul qilingan Harakatlar Dasturida⁵ hamda “Jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy odil sudlov to‘g‘risida”gi Doha Kongressi⁶ ishida qurollarning qat’iy hisobini yuritish va ularning saqlanish joylari ustidan nazoratni kuchaytirish, ularni ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan har bir o‘qotar qurol va o‘q-dorilarga tegishli bo‘lgan raqam va seriyalarini ishonchli va lozim darajada tamg‘alash, ishtirokchi-davlatlar tomonidan o‘qotar qurol va portlovchi moddalarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning huquqiy vositalar va institutsional mexanizmlarni yaratish kabi vazifalarning belgilanishi bo‘yicha keng ko‘lamli xalqaro tadqiqotlar olib borishni ham taqozo etadi.

Yangi O‘zbekistonda qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalar muomalasining huquqiy tartibini belgilovchi yangi tizim yaratildi. Jumladan, qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini tashkil etuvchi “Qurol to‘g‘risida”gi,

¹ Объем незаконной торговли оружием растет. nvo.ng.ru/gpolit/2022-12-22/10_1219_armstrade.html. (murojaat vaqti: 24.02.2023).

² <https://smallarmssurvey.org/> (murojaat vaqti: 24.02.2023).

³ <https://itnan.ru/post.php?c=2&p=278214>(murojaat vaqti: 24.02.2023).

⁴ https://www.unodc.org/documents/commissions/Congress/Kyoto_Declaration_booklet/21-02817_Kyoto_Declaration_ebook_R.pdf (murojaat vaqti: 24.02.2023).

⁵ <https://www.un.org/ru/events/smallarms2006/actions.pdf>. (murojaat vaqti: 24.02.2023).

⁶ https://www.unodc.org/documents/congress/Documentation/Report/ACONF222_17r_V1502931.pdf. (murojaat vaqti: 24.02.2023).

“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (keyingi o‘rinlarda JK deb yuritiladi) normalari takomillashtirilishi natijasida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari yanada muvofiqlashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi⁷ qabul qilinib, unda milliy jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikni xalqaro standartlar me‘yorlariga muvofiqlashtirish borasidagi ustuvor vazifalar qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning samarali jinoyat-huquqiy vositalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, hozirda qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarda mavjud ayrim huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish, shaxslarni tegishli litsenziya va ruxsatnomaga ega bo‘lmagan qurollarni o‘z ixtiyori bilan topshirishi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari yanada takomillashtirish hamda huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq muammolarning yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi (2016), “Qurol to‘g‘risida”gi (2019), “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi (2021) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021) Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qurol muomalasi sohasida ruxsat berish tartib-taomillarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2020), “Fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini ishlab chiqarish, ta‘mirlash va realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi (2020), “O‘zbekiston Respublikasi davlat o‘q-gilzotekasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020) qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalarni tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁸. O‘qotar qurol, ularning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish

⁷ <https://lex.uz/docs/3735818> (murojaat vaqti: 24.02.2023).

⁸ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: www.berkeley.edu, www.sdsu.edu, www.cam.ac.uk, www.crimeandjustice.org.uk, www.mosu-kikoty.html, www.north-west/sankt-peterburg.html, www.amia.by, apa.gov.kz, akadmvd.uz.

vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasining transchegaraviy mohiyatini anglash, ularning yangi modifikatsiyasi va turlarining ixtiro qilinishi munosabati bilan huquqiy tartibini belgilash, odillik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarini ta'minlash maqsadida ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni farqlash va jazoni individuallashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini yanada rivojlantirish, ularga qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy va kriminologik choralari takomillashtirishga oid ilmiy (fundamental) tadqiqotlar dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlarida, jumladan Kaliforniya universiteti, San-Diyego Universitetining Transchegaraviy instituti (AQSh), Kembridj universiteti, Jinoyatchilik va odil sudlov tadqiqot markazi (Buyuk Britaniya), Kikotya nomidagi Rossiya IIV Moskva Universiteti, Rossiya IIV Sankt-Peterburg universiteti (Rossiya), Belarus Respublikasi IIV Akademiyasi (Belarus), M. Esbulatov nomidagi Qozog'iston Respublikasi IIV Olma-ota Akademiyasi (Qozog'iston), shu jumladan O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ham olib borilmoqda.

Jahonda o'qotar qurol, ularning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashish choralari takomillashtirishga doir tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: qurollarning g'ayriqonuniy transchegaraviy muomalasining sabab va shart-sharoitlari, ularning oldini olishga oid amaliy ahamiyatdagi chora-tadbirlar, ushbu jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi xalqaro va milliy huquq normalarining takomillashtirilishi zarurati asoslantirilgan (AQShning Kaliforniya universiteti va San-Diyego Universitetining Transchegaraviy instituti); Lotin Amerikasida noqonuniy qurol savdosining holati aniqlangan va ularning oldini olish bo'yicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilgan (Kembridj universiteti); Yevropada terroristlar tomonidan qurollarni g'ayriqonuniy qo'lga kiritish yo'llari tadqiq qilinib, ularga chek qo'yish haqida xalqaro-huquqiy tavsiyalar ishlab chiqilgan (London jinoyatchilik va odil sudlov tadqiqot markazi); qurol muomalasini huquqiy tartibga solish, qurollarning g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun javobgarliklar belgilangan normalarni amalda to'g'ri qo'llash hamda ushbu normalarni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan (Kikotya nomidagi Rossiya IIV Moskva Universiteti, Rossiya IIV Sankt-Peterburg universiteti, Belarus Respublikasi IIV Akademiyasi, M. Esbulatov nomidagi Qozog'iston Respublikasi IIV Olma-ota Akademiyasi).

Dunyoda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashish choralari takomillashtirish bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga qaratilgan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: qurollarni g'ayriqonuniy ishlab chiqarish, tayyorlash, egallash, olish, olib yurish, o'tkazish va ulardan foydalanishning oldini olish, kamaytirish va bartaraf etish; qurollarning transchegaraviy noqonuniy savdosiga chek qo'yishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish; qurolni ishlab chiqilayotgan yangi modifikatsiya va turlarini huquqiy tartibga solish, ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni farqlash va jazoni individuallashtirish bo'yicha yangi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Mamlakatimizda B.H. G'iyosov⁹, R. Kabulov¹⁰, Yu.S. Pulatov¹¹ va M.H. Rustambayev¹²lar tomonidan qurolni jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya organlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish, o'qotar qurollarni g'ayriqonuniy egallashga qarshi jinoyat-huquqiy kurashish choralari, qurolni g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, ularning barvaqt oldini olish chora-tadbirlari hamda qurolga qonunga xilof ravishda egalik qilish va uni qo'llashga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolariga oid masalalar tadqiq etilgan.

Uzoq xorijda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi va savdosining oldini olish choralari, jinoiy javobgarlik masalalari, qurollarning noqonuniy transchegaraviy savdosi uchun javobgarlikka tortish muammolari D.Anderson, D. Kopel, D. Hemingway, M. Vrinotis, A.Wilkinson, Kawai Mikio, Kai Uzda tomonidan o'rganilgan.

MDH davlatlarida qurol muomalasini huquqiy tartibga solish, qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, ularni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlash masalalari V.V. Bashilov, I.I. Bikeyev, S.A. Grigoryans, T.L. Grigoryan, I.V. Diryutin, S.U. Dikayev, Yu.V. Zagaynova, A.A. Zadoyan, Ye.V. Zaytseva, D.M. Kokin, D.A. Koretskiy, S.M. Malkov, M.Y. Murkshtis, S.A. Nevskiy, L.F. Rogatix, E. V. Solonitskaya (Rossiya), Y.A. Lappo, A.A. Sosnovskiy (Belarus), S. Imanbayev, Ye.Shaymenov (Qozog'iston), A.S. Mavlyanov (Qirg'iziston), F.Yu. Nazarshoyevlar (Tojikiston) tomonidan olib borilgan¹³. Respublikamizda M.H. Rustambayev tomonidan "Qurolga qonunga xilof ravishda egalik qilish va uni qo'llashga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1983-y.) himoya qilingan.

Shu bilan birga, mustaqillik davrida xalqaro huquq normalari hamda xorij davlatlarining ilg'or tajribalari, mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijalari, jinoyat to'g'risidagi qonunchilik va sud-tergov amaliyotini inobatga olgan holda, qurollarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy muammolari hozirga qadar maxsus tadqiq etilmagan. Shu boisdan, mazkur mavzu ushbu doktorlik dissertatsiyasi doirasida ilk bor fundamental tarzda tadqiq qilinmoqda.

⁹ G'iyosov B.H. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda Milliy gvardiya organlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yurid. fan. nomz. ... dis. avtoref. — T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, 2022. — 43 b.

¹⁰ Kabulov R. O'qotar qurollarni g'ayriqonuniy egallashga qarshi jinoiy-huquqiy kurashish choralari // Huquq/ Pravo / Law. — T.: — 2000. — № 4. — B. 59.

¹¹ Пулатов Ю.С., Махмудов К.О. Причины и условия совершения преступления, связанных с незаконном оборотом оружия меры по их ранней профилактики(Научно-практические рекомендации). — T.: — 2000. — № 4. — С. 9–10.

¹² Рустамбаев М.Х. Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с незаконным владением и применением оружия. Дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.08 / Рустамбаев М.Х. — Ташкент, 1983. — 215 с.

¹³ Bu va boshqa manbaalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiliklarini takomillashtirishning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan (2022–2023).

Tadqiqotning maqsadi qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish hamda aniqlangan muammolarning huquqiy yechimini topish asosida jinoyat huquqi fani va sud-tergov amaliyotida mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish yuzasidan jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi tushunchasining mazmun-ma'nosini ochib beruvchi yangi ilmiy ta'rifni ishlab chiqish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasini tahlil qilish asosida ularning turlarini aniqlash;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarini tarixiy-huquqiy rivoji va hozirgi holatini tahlil qilish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun belgilangan normalarda ifoda etilgan qurol turlari va ularning qonunga xilof muomalasini tashkil etuvchi usullarining tushunchalarini sud-tergov amaliyotida bir xil ma'noda tushunilishini ta'minlash maqsadida ularning huquqiy belgilarini aniqlash asosida ta'riflarini ishlab chiqish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarning ob'ektiv va sub'ektiv belgilarini ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun javobgarlikning og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi holatlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shartlari va asoslarini tahlil qilish;

* *Izoh:* Tadqiqot ishida qo'llaniladigan "qurol" atamasi deganda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 247, 248 va 249-moddalarida qayd etilgan o'qotar, signal beruvchi, uloqtiruvchi, gazli, sovuq va pnevmatik qurol turlarini anglash lozim, biroq bakteriologik, kimyoviy va boshqa hil yalpi qirg'in qurollari turlarini mazkur dissertatsiyada tadqiq qilinayotgan predmetlar sirasiga kirmasligini tushunilishi lozim.

ayrim xorijiy mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, XXR, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston) jinoyat to'g'risidagi qonunchiligidagi qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilagan normalarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasini milliy jinoyat to'g'risidagi qonunchiligiga tatbiq etish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi normalarni tergov va sud amaliyotida qo'llash holatlarini tahlil qilish asosida ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va ularni boshqa o'xshash jinoyatlardan farqlashda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlab, ularning huquqiy yechimi bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar uchun javobgarlikning ta'minlanishi va rivojlanishi bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmetini qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning xalqaro standartlar, xorijiy mamlakatlar va milliy jinoyat to'g'risidagi qonunchilik normalari, shuningdek yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, tergov va sud amaliyoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik tahlil, sotsiologik so'rovlarni o'tkazish, surishtiruv va tergov jarayonidagi jinoyat ishi yig'ma jildlari va sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning zaruriy belgisi – jinoyat predmeti hisoblangan “o'qotar qurol”, “gazli qurol”, “pnevmatik qurol”, “signal beruvchi qurol”, “uloqtirish qurol”, “o'qotar qurolning asosiy qismlari” tushunchalarining zamonaviy yondashuv asosidagi mualliflik ta'riflarini ishlab chiqish hamda amaldagi qonun hujjatlarida aks ettirish lozimligi asoslantirilgan;

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar bunday turdagi qurolni hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi, ishlab chiqarish xavfsizligi

talablarini, ishlab chiqarish ustidan nazoratni, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini va but saqlanishini ta'minlashi shartligi bilan bog'liq qoidalarni qonunchilikka kiritish zarurati asoslantirilgan;

JKning 104, 105-moddalarida nazarda tutilgan qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish harakatlarini qurol yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib sodir etganlik uchun og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan;

xalqaro standartlar va me'yorlar talablarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadida JKning 247, 248-moddalariga o'qotar qurolning asosiy qismlari va portlatish vositalarini qonunga xilof ravishda egallash hamda ularning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan;

JKning 248-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining ob'yektiv tomoni belgilari sifatida tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish harakatlari uchun javobgarlikni belgilash lozimligi isbotlangan;

jinoyat to'g'risidagi qonunchilik normalarini O'zbekiston Respublikasining "Qurol to'g'risida"gi qonuni talablariga muvofiqlashtirish maqsadida JKning 249-moddasida odam o'limiga yoxud boshqa og'ir oqibatlar sabab bo'lgan o'qotar qurolni va uning o'q-dorilarini, shuningdek pnevmatik qurolni, tig'li sovuq qurolni (ov pichoqlarini, ov xanjarchalari va xanjarlarni, rapiralar, shpagalar va qilichlarni), ulotqirish qurolini (kamonlar, arbaletlar va nayzalarni), signal beruvchi qurolni saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

JKning 2-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda:

"Jinoyat kodeksining vazifalari shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir" deb o'zgartirish asoslantirilgan;

JKning 17-moddasi uchinchi qismini *"Ushbu Kodeksning 235-moddadan keyin 249-modda"* bilan to'ldirish zarurati asoslantirilgan;

jinoyat huquqi ta'limotida "ayb" instituti JKning 247, 248 va 249-moddalarda belgilangan jinoyat tarkiblariga xos bo'lgan sub'ektiv tomonining zaruriy belgisi xususiyatini aniqlashda huquqiy o'zak sifatida xizmat qilishini inobatga olib, "ayb" tushunchasining ta'rifini hamda formal tarkibli jinoyatlarda ayb shakllarini ham jinoyat qonunida belgilash zarurati asoslangan;

JKning 249-moddasida belgilangan jinoyatning sub'ekt yoshi belgilangan-dek, 16 yosh emas, balki 18 yosh deb belgilanishi zarurligi isbotlangan;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish maqsadida

“O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida”gi Qaror loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda muallif tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalardan Oliy va o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitilayotgan “Jinoyat huquqi” fanidan darslik va qo‘llanmalar tayyorlashda, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining malakasini oshirish yoki qayta tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarda ma‘ruzalar kursini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajribalar, qonunni qo‘llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan ilmiy-nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, sud-tergov amaliyoti (250 nafar) xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlar, 2017–2022-yillar davridagi qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga oid jinoyat ishi yig‘ma jildlari materiallari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma‘lumotlar markazidagi qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarga oid 2017–2022-yillardagi rasmiy statistik ma‘lumotlar tahlillariga asoslangan bo‘lib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan.

Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan qoidalar jinoyat huquqi nazariyasining rivojlanishiga muayyan hissa qo‘shadi. Ayniqsa, tadqiqot davomida kelgusida mazkur mavzuda tadqiqotlarni amalga oshirish istagi bo‘lgan tadqiqotchilar uchun qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi: qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy jihatlari; qurollarni g‘ayriqonuniy muomalasining ma‘muriy-huquqiy jihatlari; qurollarni g‘ayriqonuniy muomalasining kriminologik tavsifi; qurollarning kriminalistik tavsifiga oid ilmiy tadqiqot mavzulari shakllantirildi.

Ilmiy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan xulosalardan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, yuridik oliy ta‘lim muassasalarida jinoyat huquqi fanidan o‘quv mashg‘ulotlar o‘tkazish hamda o‘quv-metodik materiallarni tayyorlashda foydalanish mumkin. Ushbu tadqiqot ishi qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarliklar bilan bog‘liq muammolarni hal etishga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilash va ularga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligida ifodalanadi. Tadqiqot natijalaridan Jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining mazkur masala yuzasidan qarorini yangitdan tayyorlashda, sud-tergov amaliyoti xodimlari tomonidan o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar

yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, ularni o'xshash jinoyatlardan farqlash va jazo tayinlash amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning zaruriy belgisi – jinoyat predmeti hisoblangan “o'qotar qurol”, “gazli qurol”, “pnevmatik qurol”, “signal beruvchi qurol”, “uloqtirish quroli”, “o'qotar qurolning asosiy qismlari” tushunchalarining zamonaviy yondashuv asosidagi mualliflik ta'riflarini ishlab chiqish hamda amaldagi qonun hujjatlarida aks ettirish haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagi “Qurol to'g'risida”gi O'RQ-550-son qonunining 3-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2020-yil 12-iyundagi 06/2-08-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi qurol va uning turlari tushunchalarining ta'rifini qonunchilikda mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar bunday turdagi qurolni hamda uning o'q-dorilarini ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo'lishi, ishlab chiqarish xavfsizligi talablarini, ishlab chiqarish ustidan nazoratni, shuningdek ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini va but saqlanishini ta'minlashi shartligi bilan bog'liq qoidalarni qonunchilikka kiritishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyuldagi “Qurol to'g'risida”gi O'RQ-550-son qonunining 16-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2020-yil 12-iyundagi 06/2-08-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi qurol muomalasining huquqiy tartibini qonunchilikda mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

JKning 104, 105-moddalarida nazarda tutilgan qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazish harakatlarini qurol yoki sovuq qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ashyolarni ishlatib sodir etganlik uchun og'irlashtiruvchi holatlarda javobgarlik belgilash haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-noyabrdagi “Jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir qonun hujjatlari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-645-son qonunining 1-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining 2021-yil 29-yanvardagi 06/2-06/45 vx-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi qasddan badanga og'ir va o'rtacha og'ir shikast yetkazishni sodir etishda qurol yoki sovuq

qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan vositalarni qo'llash uchun javobgarlikni og'irlashtirish uchun asos sifatida xizmat qilgan;

JKning 247, 248-moddalariga o'qotar qurolning asosiy qismlari va portlatish vositalarini qonunga xilof ravishda egallash hamda ularning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilash haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi "Qurol to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-772-son qonunining 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 24-iyundagi 1/1145-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarliklarni belgilovchi normalarning takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

JKning 248-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining ob'yektiv tomoni belgilari sifatida tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta'mirlash, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish harakatlari uchun javobgarlikni belgilashga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi "Qurol to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-772-son qonunining 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 24-iyundagi 1/1145-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarliklarni belgilovchi normalarning takomillashtirilishiga xizmat qilgan;

jinoyat to'g'risidagi qonunchilik normalarini O'zbekiston Respublikasining "Qurol to'g'risida"gi qonuni talablariga muvofiqlashtirish maqsadida JKning 249-moddasida odam o'limiga yoxud boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan o'qotar qurolni va uning o'q-dorilarini, shuningdek pnevmatik qurolni, tig'li sovuq qurolni (ov pichoqlarini, ov xanjarchalari va xanjarlarni, rapiralar, shpagalar va qilichlarni), uloqtirish qurolini (kamonlar, arbaletlar va nayzalarni), signal beruvchi qurolni saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilash haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 31-maydagi "Qurol to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-772-son qonunining 2-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 24-iyundagi 1/1145-son ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi qurolni va uning o'q-dorilarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzishga doir qilmishlarning kriminalizatsiya qilinishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 5 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya hamda davra suhbatlarida sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 24 ta, jumladan 1 ta monografiya, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 15 ta maqola (shundan 4 tasi xorijda) va 8 ta tezislar e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n bir paragrafni o'z ichiga olgan to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 255 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti hamda predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi”**ga bag'ishlangan. Unda qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari (bundan buyon matnda ushbu ashyolar umumiy ma'noda “qurollar” deb yuritiladi)¹⁴ g'ayriqonuniy muomalasining tushunchasi va turlari, ular uchun jinoiy javobgarlik belgilangan qonun hujjatlarining tarixiy-huquqiy rivojlanishi va hozirgi holati qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasining tushunchasi va turlari”* deb nomlangan bo'lib, unda qurollar g'ayriqonuniy muomalasining ijtimoiy xavfliligi, xalqaro hamjamiyat va millat uchun tahlikali vaziyat ekanligi tahlil qilinib, O'zbekistonda so'ngi yillarda qurollar g'ayriqonuniy muomalasining o'sib borayotganligi (2020-yilda 267 ta, 2021-yilda 421 ta, 2022-yilda 473 ta sodir etilgan) bilan ularning ijtimoiy xavflilik darajasi ortib borayotganligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan milliy yuridik fanda bevosita qurolarning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar kam o'rganilganligiga e'tibor qaratib, mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarning doktrinal qarashlari, milliy jinoyat qonunchiligi, sud amaliyoti hujjatlari va sud-tergov statistika-sida qurol bilan bog'liq jinoyatlarning hisobini yuritish tartiblari tahlil qilinib, ular

¹⁴ *Izoh:* matnning mazmuniga ko'ra, ushbu ashyolar o'rni kelganda alohidallashtirilib yoki to'liq tartibda yoziladi.

bilan bog‘liq jinoyatlarni ikki mustaqil yo‘lanishdagi jinoyatlarga: qurolli zo‘ravonlik jinoyatlari va qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlar (JK 247, 248, 249-mm.)ga ajratish taklif qilingan.

Dissertatsiyada qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashish to‘g‘risidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy qonunchilik va yuridik adabiyotlarda “qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasi” tushunchasiga berilgan ta‘riflar tahlil qilinib, ushbu tushunchaga oid quyidagi mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan:

“qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasi qonunlar, hukumat qarorlari va maxsus vakolatga ega bo‘lgan idoralarning me‘yoriy hujjatlarida belgilangan tartib-taomillar va qoidalarni buzish yoki ulardagi ta‘qiqga zid ravishda qurollarni muayyan makonda va vaqt oraligida yaratish, ularni mavjud bo‘lishi, turli usullarda harakatlanishi va yo‘q qilinishi bilan bog‘liq jarayondir”.

Ishda, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarliklar belgilanganligidan kelib chiqib, ularni ikki turga: qurollarning jinoiy muomalasi va qurollarning ma‘muriy huquqbuzarliklardan iborat muomalasiga bo‘linishi hamda ular xususiyatlari va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra farqlanishi isbotlangan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“o‘qotar qurol, uning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonun hujjatlarining tarixiy-huquqiy tahlili va hozirgi holati”* deb nomlangan bo‘lib, dissertant unda qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilik normalarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holatining ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimiz hududida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan qonun hujjatlarida qurollar bilan bog‘liq munosabatlarning quyidagi tartiblari belgilanganligi aniqlangan:

XIX asr boshlarida, dastlab, qurollarga yuqori tabaqadagi insonlarning mulki sifatida qaralganligi uchun ular mulkiy munosabatlar kabi tartibga solingan;

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, qurol muomalasi bilan bog‘liq munosabatlar ustidan davlat boshqaruvi tartibi o‘rnatilgan;

XX asr boshlaridan jamiyatda qurolli ziddiyatlarning tobora avj olishi, fuqarolarning qo‘lida g‘ayriqonuniy saqlanayotgan qurollarning ko‘payishi natijasida aholining hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish yoki shunday zarar yetkazish real xavfining yuqoriligi oshganligi bois javobgarlik masalalari kuchaytirilib, ular jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi munosabatlar sifatida belgilangan.

Izlanuvchi tarixiy-huquqiy tahlillar asosida o‘qotar qurol, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan normalarning rivojlanishini quyidagi bosqichlar bilan tavsiflanishi maqsadga muvofiqligini belgilab bergan:

birinchi bosqich – (XIX asrning boshlaridan – XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar) mamlakatimiz hududida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalari asta-sekinlik bilan muomalaga kiritilib, ular bilan muomala qilishning huquqiy tartibga solish masalalari Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida islom huquqi va mahalliy urf-odatlar asosida hal etilgan;

ikkinchi bosqich – (XIX asrning ikkinchi yarmidan – XX asrning 20-yillariga qadar) Chor Rossiyasining tarqoq qonun-hujjatlari va mahalliy shariat qoidalarini bilan tartibga solingan;

uchinchi bosqich – (1926-yildan 1994-yilga qadar) sobiq RSFSR va ittifoq jinoyat kodekslari asosida 1926-yil va 1959-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodekslari bilan qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi tartibga solingan. Ushbu davrlar mobaynida yildan-yilga mazkur jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik-lar alohidalashtirilib, qo‘llaniladigan jazo choralari kuchaytirilib borilgan;

to‘rtinchi bosqich – (1994-yildan 2017-yilga qadar) ushbu davr mobaynida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o‘zgartirilishi, jamiyatni demokratlashtirish prinsiplari asosida rivojlantirish islohotlari natijasi qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni belgilovchi normalar ancha ixchamlashtirilib, tayinlanadigan jazo turlari bir muncha liberallashtirilishiga erishildi, xususan, qo‘llanilgan mol-mulkni musodara qilish jazosi bekor qilindi, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga nisbatan muqobil jazo turi sifatida ozodlikni cheklash jazosi tayinlanishi belgilandi;

beshinchi bosqich – (Yangi O‘zbekiston davri, ya’ni 2017-yildan hozirga qadar) O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi munosabati bilan shu kunga qadar tarqoq bo‘lgan qurol muomalasining huquqiy tartibi yagona tizimga keltirildi. Buning natijasida JKning 247 va 248-moddalarining birinchi qism dispozitsiyalari hamda 249-modda yangi tahrirda qabul qilinib, ularda, ya’ni JKning 247 va 248-moddalariga jinoyat predmeti sifatida qo‘shimcha “o‘qotar qurollarning asosiy qismlari”, “portlatish vositalari”, shuningdek JKning 248-moddasida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasining “ishlab chiqarish”, “ishlab chiqish”, “ta’mirlash”, “foydalanish” kabi usullari bilan birga JK 249-moddasida pnevmatik, tig‘li sovuq qurol (ov pichoqlari, ov xanjar-chalari va xanjarlar, rapiralar, shpagalar va qilichlarni), uloqtirish qurol (kamonlar, arbaletlar va nayzalar), signal beruvchi qurollarni saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish uchun javobgarliklar belgilandi.

“Qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g‘ayriqonuniy muomalasining jinoyat-huquqiy tahlili” deb nomlangan tadqiqotning ikkinchi bobida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyat tarkiblarining ob’ektiv va sub’ektiv belgilari, ushbu elementlarning har bir belgilarining

xususiyatlari va qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi holatlar tahlil qilingan. Shuningdek, qurollarni o'z ixtiyori bilan topshirgan shaxsni javobgarlikdan ozod qilishning asos va shartlari aniqlashtirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasining ob'ektiv belgilari tahlili*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda qurollar g'ayriqonuniy muomalasining ob'ektiv belgilarini: 1) jinoyat ob'ekti va predmeti; 2) jinoyatning ob'ektiv tomon belgilariga ajratgan holda, ya'ni javobgarlikni differentsatsiya qilish asosida ularning asosiy va og'irlashtiruvchi tarkiblarining ob'ektiv tomoni belgilari yuridik tahlil qilingan.

Dissertant jinoyat ob'ekti ta'limotiga oid ilmiy tadqiqot ishlari va yuridik adabiyotlardagi doktrinal qarashlarni o'rganib, JK maxsus qismi tuzilishi: bo'lim, bob va moddalardan iboratligi sabab, jinoyat ob'ektini quyidagi tasnif bo'yicha: 1) ijtimoiy munosabatlarning umumiylik darajasi, ya'ni vertikal tartibga ko'ra, umumiy, maxsus, turdosh va bevosita ob'ektlarga; 2) alohida turdagi jinoyatni sodir etilishi natijasida zarar yetkazishdan yoki shunday zarar yetkazish xavfi yuzaga kelishidagi ijtimoiy munosabatlarning muhimligiga, ya'ni gorizontallik tartibga ko'ra, asosiy, qo'shimcha va fakultativ bevosita ob'ektlarga ajratish maqsadga muvofiqligini asoslagan.

Tadqiqotda jinoyat to'g'risidagi qonunchilik "Inson qadri uchun" xizmat qilishi haqidagi ulug'vor g'oyalarga javob berishini ta'minlashga oid Konsepsiya talablari, doktrinal qarashlar va xalqaro tajribaga tayanib, amaldagi JK 2-moddasida belgilangan JK vazifalarini yanada aniqlashtirish maqsadida, ushbu moddaning birinchi qismini "*Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir*" – deb o'zgartirish kiritish taklifi asoslantirilgan.

Shundan kelib chiqib, qurollarning g'ayriqonuniy muomalasining umumiy ob'ekti shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlarini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar yig'indisi; maxsus ob'ekti jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisi; turdosh ob'ekti jamoat xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar yig'indisi ekanligi asoslantirilgan.

Bevosita ob'ektning tahlili JKning alohida moddalarida javobgarlik belgilangan normalarning o'ziga xosligidan kelib chiqib, aniqlash maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Xususan, o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-m.)ning asosiy bevosita ob'ekti qurollarning muomalasi bilan bog'liq aholining xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, qo'shimcha bevosita ob'ekti shaxsning hayoti, sog'lig'i va mulkiy munosabatlar bo'lishi asoslantirilgan.

O‘qotar qurolning, o‘q-dorilarning, o‘qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi (JK 248-m.)ning bevosita ob’ekti ushbu qurollarning tegishli litsenziyasiz va ruxsatnomasiz muomalasini amalga oshirishdan muhofaza qilinadigan aholining xavfsizligini ta’minlovchi munosabatlar ekanligi isbotlangan.

Qurolni va uning o‘q-dorilarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish (JK 249-m.)ning asosiy bevosita ob’ekti o‘qotar qurolni va uning o‘q-dorilarini, shuningdek, pnevmatik qurolni, tig‘li sovuq qurol (ov pichoqlari, ov xanjarlari va xanjarlarni rapiralar, shpagalar va qilichlar), uloqtirish qurol (kamon, arbalet va nayzalar), signal beruvchi qurolni saqlash, olib yurish, tashish tartibini belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi, qo‘shimcha bevosita ob’ekti inson hayoti, sog‘lig‘i va mulkiy munosabatlar ekanligi aniqlashtirilgan.

Dissertatsiyada qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlarning predmeti yuqori xavf tug‘diruvchi manbaa hisoblangan, qo‘llanilishi natijasida shaxs, jamiyat va davlat uchun real xavfni keltirib chiqaradigan, insonni mavh etish, mol-mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish maqsadi uchun mo‘ljallangan, qo‘llashga yaroqli bo‘lgan, erkin muomalada bo‘lishi cheklangan predmetlar hisoblanishi asoslangan.

Ushbu umumiy belgilarga ko‘ra o‘qotar qurol, uning asosiy qismlari va o‘q-dorilari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari, portlovchi qurilmalar ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ko‘ra bir xil va teng ahamiyatga egaligi uchun JK 247 va 248-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning predmetlari bo‘lishi, shuningdek JK 249-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning predmeti esa o‘qotar qurol va o‘q-dorilar bilan birgalikda, pnevmatik qurol, tig‘li sovuq qurol (ov pichoqlari, ov xanjarlari va xanjarlar, rapiralar, shpagalar va qilichlar), uloqtirish qurol (kamonlar, arbaletlar va nayzalar), signal beruvchi qurollar ekanligi asoslangan.

Ishda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonuni va jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikda portlovchi moddalar, portlatish vositalari va portlatish qurilmalar tushunchalarining ta’riflari berilmaganligi bois, o‘tkazilgan tahlillar natijasida, *portlovchi moddalar* – ximik o‘zgarishlar natijasida uloqtirish yoki vayron qilish kuchiga ega bo‘lgan ko‘p miqdorda issiqlik va qizigan gaz hosil qiladigan, tashqi ta’sir (yoqish, zarba, detonatsiya, qizdirish, havo bilan birlashish natijasida o‘z-o‘zidan yonish) kuchi oqibatida tez ximik o‘zgarishlarga kirishuvchi, qattiq, quyyuq va gazli holatdagi sun’iy va tabbiy moddalar; *portlatish qurilmalar* – portlovchi modda va portlatishni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan konstruktiv maxsus qurilma (zapal, detonator va h.k.)ni o‘zida funksional birlashtiruvchi, sanoatda yoki qo‘lbola yasalgan qurilmalar; *portlatish vositalar* deganda, portlatishni yuzaga keltirish uchun mo‘ljallangan konstruktiv maxsus vosita (zapal, detonator va hokazo)lar deb ta’riflar berilgan.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonunida portlovchi moddalar, portlatish vositalari va portlatish qurilmalar muomalasi tartibga solinmaganligi hamda bu sohada boshqa qonunning yo‘qligi sababli Fransiya, Yaponiya va Xitoy davlatlari qonunchiligi tahliliga tayanib, portlovchi

moddalar, portlatish vositalari va portlatish qurilmalar muomalasining tartiblarini ham “Qurol to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimchalar kiritish orqali belgilash yoxud alohida “portlovchi moddalar, portlatish vositalar va portlatish qurilmalar to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish zarurati mavjudligi ko‘rsatilgan.

Ishda sud-tergov amaliyotida qurollar g‘ayriqonuniy muomalasining predmetini aniqlashda yo‘l qo‘yilayotgan xatolar aniqlanib, ularni bartaraf etish maqsadida qilmishlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda, predmetning jinoyat tarkibida tutgan o‘rni va xususiyatidan kelib chiqib, tadqiq qilinayotgan jinoyatlarda jinoyat predmetini har doim ham jinoyat ob‘ektining zaruriy belgisi sifatida tushunish kerak emasligi asoslangan, chunki ushbu predmet (qurol)lar JK 248-moddasi bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasidan chetda qolib, balki jinoyat sodir etishda yordamchi sifatida ob‘ektiv tomonning belgisi bo‘lishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyada harbiy texnika va jangovar mashinalarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik masalasi tahlil qilinib, professor R. Kabulovning jangovar mashinalarning g‘ayriqonuniy muomalasi, ayniqsa qonunga xilof ravishda egallash uchun javobgarlik o‘rnatish lozimligi, O‘zbekiston Respublikasi JKning 247-mod-dasi 1-qism dispozitsiyasiga “jangovar mashinalarni” jinoyatning predmeti sifatida kiritilishi to‘g‘risidagi taklifga nisbatan muallif munosabat bildirilib, harbiy texnika: tanklar, jangovar mashinalar, bronetransportyor va boshqa jangovar texnikalar muayyan qiymatga ega bo‘lgan predmet sifatida va ikkinchi tomondan esa harbiy texnika qaysidir ma’noda qurol hisoblansada, ammo ular bilan bog‘liq g‘ayriqonu-niy harakatlar jamoat xavfsizligi darajasiga uncha ham ta’sir etmasdan, balki Qurolli Kuchlarning mudofaa salohiyati, davlatning tashqi va ichki xavfsizligiga ko‘proq ta’sir etishi mumkinligini inobatga olib, harbiy texnika va taktik qurollar-ning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun alohida normalarga javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan.

Dissertant qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarning ob‘ektiv tomoni belgilarini asosiy va qo‘shimcha belgilardan iboratligini inobatga olib, JK 247-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning ob‘ektiv tomoni qurollarni talon-toroj qilishning o‘g‘irlik, firibgarlik, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab mavqeini suiste‘mol qilish, talonchilik, tovlamachilik va bosqinchilik usullari bilan egallash harakatlarida namoyon bo‘lishi, ushbu jinoyat tarkibi tuzilishiga ko‘ra moddiy tarkibli jinoyat ekanligini hisobga olib, jinoiy oqibat kelib chiqishi, ya’ni predmetlardan birining qo‘lga kiritilishi zarurligi, ammo undan foydalanish imkoniyati bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar tamom bo‘lgan deb topilishi, shuningdek jinoyatning sodir etish usullari zaruriy belgi sifatida ifodalanishini asoslantirgan.

Tadqiqotda, JKning 247-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ob‘ektiv tomonining jinoyat sodir etish usullaridan “o‘zlashtirish”, “rastrata qilish” tushunchasining jinoyat qonunida ta’rifi keltirilmaganligi, olimlar o‘rtasida bir xil fikrning yo‘qligiga sabab sud-tergov amaliyotida ushbu tushunchalarni qo‘llash bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelayotganligi ma’lum qilingan. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida “o‘zlashtirish” va “rastrata qilish” tushunchalarining ta’riflarini ishlab chiqish va uni qonunga joriy etish zarurati haqidagi taklif ilgari

surilgan. Ushbu taklif o'tkazilgan anketa-so'rovida ishtirok etgan respondentlarning ko'pchiligi (67,4 foiz) tomonidan ma'qullangan.

JKning 247-moddasida belgilangan "o'zlashtirish" va "rastrata qilish" tushunchalari: "*o'zlashtirish yo'li bilan egallash deganda*, shaxsga huquqiy asoslarda ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zga qurollarni, huquqqa xilof, o'rnini qoplamasdan, qaytarib bermaslik sharti bilan o'z foydasiga olib qo'yishdir", "*rastrata qilish yo'li bilan egallash deganda*, shaxsga huquqiy asoslarda ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zga qurollarni, huquqqa xilof, o'rnini qoplamasdan, qaytarib bermaslik sharti bilan uchinchi shaxslar foydasiga begonalashtirish yoki sarf-harajat qilib yuborishdir", – deb ta'riflangan.

Dissertant, JK 247-moddasi 2-qismi "d" bandida belgilangan "tamagirlik yo'li bilan sodir etilsa", degan jumlaning qo'llashda JKning o'zbek tilidagi va rus tilidagi matnida tafovut mavjudligi, aksariyat olimlar (88,3 foiz)ning fikrlarini inobatga olib, ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida, uning o'rniga "tovlamachilik qilish" deb belgilanishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyada qurollarni bosqinchilik yoki tovlamachilik yo'li bilan egallashda, ya'ni JK 247-moddasining tegishincha ikkinchi qismi "d" bandi va uchinchi qismi "a" bandida nazarda tutilgan normalarni amalda to'g'ri qo'llashda muammolar yuzaga kelayotganligi sababli "tovlamachilik qilish" va "qurollarni egallash maqsadida xayot yoki sog'liq uchun xavfli zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish" degan qoidalar bilan almashtirish taklifi ilgari surilgan. Mazkur taklif olimlar va sud-tergov organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovida ishtirok etgan respondentlarning ko'pchiligi (87,1 foiz) tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Tadqiqotda, JK 248-moddasida javobgarlik belgilangan jinoyat tuzilishiga ko'ra formal tarkibli ekanligi e'tiborga olinib, ushbu jinoyatning ob'ektiv tomoni belgilarini faqat ijtimoiy xavfli qilmish, ya'ni tegishli litsenziyalarsiz yoki ruxsatnomalarsiz qurollarni ishlab chiqarish, ta'mirlash, olish, saqlash, olib yurish, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish, shuningdek portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, olish, saqlash, tashish, ulardan foydalanish yoxud ularni o'tkazish kabi harakatlarni sodir etilishida namoyon bo'lishi, qurollarning qonunga xilof muomalasini tashkil etuvchi usullardan, hattoki bittasini sodir etilishi bilan jinoyat tugallangan, deb topilishi asoslangan.

Dissertant tomonidan JK 249-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi tuzilishiga ko'ra moddiy tarkibli ekanligi bois, uning ob'ektiv tomoni belgilari ijtimoiy xavfli qilmish – ushbu jinoyat predmetlarini saqlash, olib yurish, tashish qoidalarini buzish harakat yoki harakatsizlikda ifodalanilishi, ushbu qilmishlarning sodir etilishi natijasida odamning o'limiga yoxud boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lishi, shuningdek ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish belgilari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning *“Qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalar g‘ayriqonuniy muomalasining sub‘ekktiv belgilari tahlili”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasining sub‘ekktiv belgilarini: 1) jinoyat sub‘ektti; 2) jinoyatning sub‘ekktiv tomon belgilariga ajratgan holda ushbu turdagi jinoyatlarni differensiyalash tartibida sub‘ekktiv belgilari va ularga ko‘ra javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlari tahlil qilingan.

Tadqiqotchi qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarning sub‘ekktivni aniqlashda, jinoyat haqidagi ta‘limotda mavjud doktrinal qarashlar va sud-tergov amaliyoti tajribalariga tayanib, JKning 247-moddasida belgilangan jinoyatning sub‘ekktivni umumiy va maxsus belgilarga ajratga holda tahlil qilib, umumiy belgilarga ko‘ra jinoyatning sub‘ekktiv jinoyat sodir etgunga qadar 14 yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxs deb belgilanishini hamda maxsus sub‘ekktiv xususiyatlariga ko‘ra ushbu jinoyatni o‘zlashtirish, rastrata qilish yoki mansab mavqeyini suiste‘mol qilish yo‘li bilan sodir etgan shaxsning huquqiy maqomi, ya‘ni qurollar unga normativ-huquqiy hujjalar yoki huquqiy shartnomalar asosida ishonib berilgan yoki uning ixtiyoriga berilganlik holati yoki mansabdor shaxs belgilariga ega bo‘lgan shaxslar jinoyat sub‘ekktiv bo‘lishi, shuningdek JKning 248-moddasida belgilangan jinoyatning sub‘ekktiv 16 yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxslar ekanligining ijtimoiy shartlanganligini isbotlagan.

Muallif JK 249-moddasida belgilangan jinoyat sub‘ekktiv yoshi JK 17-moddasiga muvofiq 16 yosh deb topilishiga o‘z munosabatini bildirib, amaldagi O‘zbekiston Respublikasining *“Qurol to‘g‘risida”*gi qonunga binoan o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilariga tegishli ruxsatnoma asosida ega bo‘lish uchun 25 yoshga to‘lgan hamda pnevmatik, tig‘li sovuq, uloqtirish va signal beruvchi qurollarga esa 18 yoshga to‘lgan shaxslarga ruxsatnoma va litsenziya berilishi mumkinligi talabidan kelib chiqib, JK 249-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning sub‘ekktiv yoshini 16 yosh deb emas, balki 18 yoshdan belgilash lozimligini asoslantirgan. Ushbu taklif olimlar va sud-tergov organlari xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa-surovida ko‘pchilik respondentlar (78,7 foiz) tomonidan ma‘qullangan.

Dissertatsiyada qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyalar uchun javobgarlikning og‘irlashtiruvchi holatlari *“takroran”* (JK 247-m. 2-q. *“a”* b.; JK 248-m. 2-q.), *“xavfli retsivist tomonidan”* (JK 248-m. 2-q.), *“bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilishi”* (JK 247-m. 2-q. *“b”* b.), *“o‘ta xavfli retsivist tomonidan”* (JK 247-m. 3-q. *“b”* b.), *“uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab”* (JK 247-m. 3-q. *“v”* b.) sodir etish holatlari jinoyat sub‘ekktivga xos belgilar sifatida ularning xususiyatlari va ahamiyati Jinoyat kodeksi Umumiy qism qoidalari, ya‘ni tegishincha JKning 29-(Jinoyat ishtirokchilarining shakllari), 32-(takroran jinoyat sodir etish) va 34-moddalari (retsivist jinoyat) qoidalari muvofiq holda asoslangan.

Ishda *“ayb”* instituti qoidalari muhim ahamiyatga egaligi bois, ammo bugungi kunda Jinoyat kodeksida ayrim huquqiy bo‘shliqlar mavjudligi sabab, uni takomillashtirish zarurati, ya‘ni *“ayb”*ning tushunchasi, formal tarkibli jinoyatlarda

ayb shakllari haqida asoslantirilgan qoidalar ishlab chiqish zarurati borligi, chunki JK 248-moddasida nazarda tutilgan jinoyat takribi tuzilishiga ko'ra formal tarkibli ekanligi inobatga olib, uning ayb shakllarini aniqlashda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish maqsadida JK 20-moddasini: Ayb va uning shakllari deb nomlab, ushbu moddaning birinchi qismini ikkinchi qismiga o'tkazib, birinchi qismida "ayb" tushunchasini quyidagicha *"aqli raso shaxsning sodir etayotgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va (yoki) uning jinoiy oqibatiga nisbatan ruhiy munosabatining qasd yoki ehtiyotsizlik shakllarida ifodalanuvchi sub'ektiv tomonning belgisi"* deb ta'riflash taklif qilingan.

Shuningdek, "JKga yangi 22¹-modda. Jinoiy oqibat kelib chiqishi talab qilinmaydigan jinoyatlarda ayb shakllari deb nomlab,

Ijtimoiy xavfli oqibatlarining yuzaga kelishi talab qilinmaydigan jinoyatlarda aybning shakli shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi (harakat yoki harakatsizligi)ga nisbatan belgilanadi.

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z qilmishi (harakat yoki harakatsizligi) xususiyatining ijtimoiy xavfliligini anglasa va uni istab sodir etadigan bo'lsa, unda jinoyat qasddan sodir etilgan deb hisoblanadi.

Agar jinoyatni sodir etgan shaxs o'z qilmishi (harakat yoki harakatsizligi) xususiyatining ijtimoiy xavfliligiga ko'zi yetmasa-da, lekin u ushbu qilmishni anglashi lozim va mumkin yoxud asossiz umid qilgan holda uning sodir etilishiga yo'l qo'ygan bo'lsa, unda jinoyat ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan deb hisoblanadi" degan qoidalar bilan to'ldirish taklifi asoslangan.

Ishda tadqiq qilinayotgan jinoyatlarning sub'ektiv tomonning belgilari tahlil qilinishicha natijasida, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 247 va 248-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar aybning faqat qasd shaklida sodir etilishi va ushbu jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan normalarni amalda to'g'ri qo'llash uchun ayb shakllariga ko'ra kvalifikatsiya qilishning ayrim holatlari bo'yicha amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, yuridik fanda va sud-tergov amaliyotida JKning 249-moddasida nazarda tutilgan jinoyat ayb shakllariga ko'ra murakkab aybli jinoyat bo'lishi, ya'ni qilmishga nisbatan qasd, jinoiy oqibatlarga nisbatan esa ehtiyotsizlikda namoyon bo'lishi haqida doktrinal qarashlar va fikrlar mavjud bo'lsa-da, ammo dissertant o'z ilmiy-nazariy va amaliy tahlillari asosida ushbu jinoyat aybning faqat ehtiyotsizlik orqali sodir etilishini asoslantirib bergan.

Muallif ishda tadqiq qilinayotgan jinoyatlarning motivi va maqsadini to'g'ri aniqlash, ularning ijtimoiy xavflilik darajasini, kasdning shakllanishini, jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va adolatli jazo tayinlash masalalarini hal etishga xizmat qilishini asoslantirgan.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi *"O'qotar qurolning, o'q-dorilarning, o'qotar qurol asosiy qismlarining, portlovchi moddalarning, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning asos va shartlari"* deb nomlangan bo'lib, unda JKning 248-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning maxsus shartlarini belgilovchi rag'batlantiruvchi

norma o'rganilganida, unda ushbu moddada nazarda tutilgan "ashyolarni o'z ixtiyori bilan topshirgan"lik tushunchasining qonuniy ta'rifi ushbu qoidada to'liq ifoda etilmaganligi, sud-tergov organlari xodimlari tomonidan mazkur normani amalda qo'llashda yuzaga kelayotgan muoammolarga ilmiy asoslantirilgan yechim topish maqsadida, milliy qonunchilik, jinoyat huquqiy adabiyotlar va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 27-fevraldagi "Qonunga xilof ravishda qurolga egalik qilish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 3-son, 2000-yil 15-sentyabrdagi "Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarga oid ishlarni ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 23-son va 2017-yil 28-apreldagi "Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 12-son Qarorlarining talablarini tahlil qilish natijasida, JK 248-moddasi to'rtinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilinishi asoslantirilgan:

"Ushbu moddada nazarda tutilgan *ashyolarni* shaxs o'z ixtiyori bilan topshirsa javobgarlikdan ozod qilinadi.

Qayd etilgan ashyolarni shaxsda topshirish uchun real imkoniyatlar mavjud bo'lgan holda, o'z tashabbusi (qat'iyatlik xoxish-istagi) bilan topshirish to'g'risida qarorga kelsa, uning o'zi bu ashyolarni topshirish yoki ularni qayerda joylashganligi haqida vakolatli organlarga yozma yoki og'zaki ravishda murojaat (xabardor) qilib, ularni topshiradigan bo'lsa, u ashyolarni o'z ixtiyori bilan topshirgan deb hisoblanadi".

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik haqidagi xorijiy davlatlar jinoyat to'g'risidagi qonunchiligining tahlili**" deb nomlangan bo'lib, unda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi bilan qarshi kurashishga oid anglo-sakson, romano-german, Osiyoning rivojlangan va MDHning ayrim davlatlarining qurol to'g'risidagi qonunchiligi va jinoyat-huquqiy tizimi tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi "*Anglo-sakson huquq tizimiga mansub davlatlar (AQSh va Buyuk Britaniya misolida) jinoyat to'g'risidagi qonunchiligida qurol, o'qotar qurollarning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari*" deb nomlangan birinchi paragrafida anglo-sakson huquq tizimiga mansub AQSh va Buyuk Britaniya jinoyat to'g'risidagi qonunchiligida qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari qiyosiy huquqiy tahlil qilingan.

Tadqiqotda AQShda qurol muomalasi ustidan nazoratni o'rnatish va ularning g'ayriqonuniy muomalasining oldini olishga qaratilgan 20.000 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligidan maqsad jamiyat ushbu jinoyatlardan juda katta talofatlarga duchor bo'layotganligi uchun ularga qarshi kurashishda federal va 51 ta shtat miqyosida shunday huquqiy vositalarga muhtoj sezilishi va huquqiy tizimning talablari bilan izohlanishi asoslangan.

Dissertant tomonidan AQShning Namunaviy federal jinoyat qonunchiligi bilan birga Texas va Nyu-York shtatlarining qurol muomalasini tartibga soladigan va qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan qonun hujjatlarining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida AQShda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari qo'llash borasida to'plangan tajribalardan quyidagilarini milliy jinoyat qonunchiligini takomillash-tirishda foydalanish maqsadga muvofiq deb topilgan:

g'ayriqonuniy muomalaga kiritilayotgan qurollarning miqdori, mohiyatiga qarab javobgarlik belgilash va farqlash choralari ko'rish;

qurollarga nisbatan portlovchi modda yoki portlatish qurilmalarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligini inobatga olib, ularning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni farqlash.

Dissertatsiyada, qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi Buyuk Britaniya jinoyat qonun-hujjatlarining asosiy xususiyatlari: o'qotar qurol tushunchasining doirasiga, garchi ularning har qanday turidan qat'iy nazar ular uchun javobgarlikning alohida farqlanishi belgilanmagan (differensiyalashtirilmagan), har qanday snaryad (o'q, gaz, zaharli suyuqlik) bilan o'qotish prinsipiga asoslangan qurolning o'zidan tashqari, uning tarkibiy qismlari, shuningdek, o'qotish jarayonida uning aniqlash imkonini bermaslikka (shovqini va o'q chiqishida olovini kamaytirishga) xizmat qiladigan moslamalarning kiritilganligi; qurolning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati uchun nisbatan og'irroq jazolarning qo'llanilishi; qurolning erkin (fuqarolik) muomalaga kiritilishiga ruxsat berilgan yoki berilmaganligiga qarab javobgarlikni belgilanganligi; predmetlar aniq doirasining belgilanganligi, ularning g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikni aniq belgilash va albatta, ularni tartibga solishda bo'shliqlarni yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinganligi; qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun belgilanadigan jinoiy javobgarlikka ustuvorlik berilishi bilan jinoiy va ma'muriy javobgarliklarning uyg'unligidan iborat ekanligi xulosa qilingan.

Mazkur bobning *"Romano-german huquq tizimiga mansub davlatlar (Germaniya va Fransiya misolida) jinoyat to'g'risidagi qonunchiligida qurol, o'qotar qurollarning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari"* deb nomlangan ikkinchi paragrafda romano-german huquq tizimiga mansub Germaniya va Fransiya davlatlari jinoyat qonunchiligida qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari hamda ularning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan normalar bilan o'zaro munosibligi qiyosiy huquqiy tahlil qilingan.

Dissertatsiyada Germaniya va Fransiya jinoyat qonun hujjatlarida faqat terroristik aktlarni sodir etishga qaratilgan harakatlar, ya'ni qo'llanilishi o'limga olib keladigan yoki portlatish mexanizmlarni, o'qotar qurol va uning o'q-dorilarini, portlovchi moddalarni, biologik, kimyoviy yoki toksik qurollarni ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, jamlash, olish va jo'natish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, ammo ular uchun O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonun

hujjatlarida belgilangan kabi umumiy asoslarda javobgarliklar mavjud emas. Ushbu davlatlar jinoyat qonunchiligida zo‘ravonlik sodir etishda qurollarni qo‘llash yoki qo‘llash bilan qo‘rqitish uchun javobgarliklarning og‘irlashtiruvchi holatlari belgilanganligi hamda qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi (qurollarni o‘g‘rilash) uchun tayinlanadigan jazo tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan birga jarima jazosini ko‘proq qo‘llash amaliyoti yo‘lga qo‘yilganligi holatini muallif milliy jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirishda ijobiy tajriba sifatida kiritishni asoslantirgan.

Mazkur takliflar olimlar va sud-tergov amaliyoti xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa-so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning aksariyati (78,6 foiz) tomonidan qo‘llab quvvatlangan.

Ishda Fransiyaning “Jangovar texnika, qurol-yarog‘ va o‘q-dorilar tartibi to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq mamlakatda muomalaga kiritilgan barcha qurol-yarog‘ va aslahalar, harbiy texnikalar 8 ta toifaga ajratilganligi, ulardan g‘ayriqonuniy foydalanish natijasida yuz bergan zararli oqibatlarining xususiyati va xavflilik darajasiga qarab javobgarlik differentsiatsiya qilinganligi fuqarolarning shaxsiy dahlsizligini himoya qilishda, qonuniylik, odillik va ayb uchun javobgarlik prinsiplarini yuqori darajada ta‘minlanayotganligi ta‘kidlangan va bunday tajribani O‘zbekistonda ham qo‘llash maqsadga muvofiqligi bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi “*Rivojlangan Osiyo davlatlar (Yaponiya va Xitoy misolida) jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiligida qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari*” deb nomlangan bo‘lib, unda Yaponiya va Xitoy davlatlari jinoyat qonunchiligida qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari qiyosiy huquqiy o‘rganilgan.

Tadqiqotda muallif Yaponiyaning qurol to‘g‘risidagi qonunchiligini amalda samarali qo‘llanilishi, qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashish borasidagi tajribalarini o‘rganish asnosida Yaponiya davlatining quyidagi samarali tajribalarini miliy qonunchilik va institutsional mexanizmalarni takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblagan:

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va ma‘muriy mexanizmlarning hayotbaxshligi, aholining huquqiy ongini va butun yapon g‘oyasiga itoatkorlik ruhiyatining o‘zaro uyg‘un va chambarchas bog‘liqlikligi dunyoda umumiy jinoyatchilik (shu bilan birga qurollarning g‘ayriqonuniy muomalasi) bo‘yicha eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lganligining asosidir;

qurollarning har qanday turiga nisbatan ta‘sirchan cheklov o‘rnatilishi va ularning g‘ayriqonuniy muomalasi uchun boshqa jinoyatlarga nisbatan og‘irroq (o‘lim) jazosini tayinlanishi, bu davlat hokimiyat organlarining qat‘iy yondoshuvi emas, balki butun yapon xalqining irodasining mahsuli hamdir.

Dissertant Xitoy davlatining qurollar g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda to‘plagan samarali tajribasiga ilmiy, amaliy yondashuvlar asosida milliy jinoyat qonunchiligining bu boradagi normalarini takomillashtirish

maqsadida, quyidagilarni joriy etishni tavsiya qilgan:

g'ayriqonuniy muomalada bo'lgan yoki zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etishda qo'llanilgan har qanday qurollarni davlat hisobiga musodara qilib, kelgusida ularni g'ayriqonuniy muomalaga kiritilishiga yo'l qo'ymaslik uchun utilizatsiya (yo'q) qilish;

kelgusida qurol-yarog'larni internet orqali noqonuniy onlayn-savdosiga yo'l qo'ymaslik maqsadida "telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib qurollarni g'ayriqonuniy o'tkazish o'tkazish" uchun alohida javobgarlikni o'rnatish;

zo'ravonlik jinoyatlarini o'qotar (sovuq) qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalaridan foydalanib sodir etilishini javobgarlikning og'irlashtiruvchi holati sifatida belgilash;

jinoyat qonunchiligiga qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun yuridik shaxslarning javobgarlik masalasini qo'llash.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "*MDH davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog'iston misolida) jinoyat to'g'risidagi qonunchiligida qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlikning xususiyatlari*" deb nomlangan paragrafida Rossiya, Belarus va Qozog'iston davlatlarining jinoyat to'g'risidagi qonunchiligida qurollar g'ayriqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlikning xususiyatlari tahlil qilingan.

Tahlillar natijasida qilingan xulosalar asnosida mazkur davlatlar ijobiy tajribasidan kelib chiqib, kelgusida milliy jinoyat qonun xujjatlarini takomillashtirish maqsadida qurol turiga qarab javobgarlikni farqlash; javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida "axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari, shuningdek "Internet" tarmog'idan foydalanib" sodir etilishini belgilash; "o'qotar qurolning markirovkasini soxtalashtirish yoki uni qasddan yo'q qilish" hamda "o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qo'riqlash bo'yicha vazifalarni lozim darajada bajarmaslik" uchun javobgarliklarni alohida normalarda belgilash lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalari g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy asoslarini takomillashtirish**" deb nomlangan bo'lib, unda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va ularni o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash hamda ular uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan.

Ushbu bobning "*Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasidan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash*" deb nomlangan birinchi paragrafida jinoyat huquqi adabiyotlarida, ilmiy maqolalar va sud-tergov amaliyotida qurollarning g'ayriqonuniy muomalasini kvalifikatsiya qilish va ularni o'xshash bo'lgan

jinoyatlardan farqlash borasida bildirilgan fikrlar baxs-munozara yuritishni talab etayotganligi hamda yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar, xususan g'ayriqonuniy muomalada bo'lgan qurol ashyolarning tushunchasi, ahamiyati va xususiyati, qurolning g'ayriqonuniy muomalasini tashkil etuvchi ijtimoiy xavfli harakatlarning to'liq sodir etilgan vaqtlarini aniqlash, ularni tushunchasining mohiyatini to'g'ri angalashda, bir-birini takrorlanishga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan holatlar (masalan qurollardan noqonuniy foydalanish) tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va ularni o'xshash jinoyatlardan farqlash qoidalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan va ushbu takliflar dissertant tomonidan tadqiqot doirasida tayyorlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi qaror loyihasida o'z aksini topgan.

Tadqiqot ishida bugungi kunda "o'qotar qurolning asosiy qismlari" g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq harakatlarni kvalifikatsiya qilish masalasi eng muammoli holat bo'layotganligi, ya'ni o'qotar qurolning asosiy qismlarining yaxlitlikda yoki bittasining o'zi bilan ham bog'liq g'ayriqonuniy muomala qilish uchun javobgarlik belgilasa bo'ladimi degan masalaning muammoligi hattoki ushbu masala bo'yicha sud-tergov amaliyoti xodimlarining fikri o'rganilganda, ularning 82,6 foizi aniq javob berishda qiynalganliklari oydinlashgan. Mazkur masala yuzasidan muallif o'z fikrlarini xalqaro va milliy qonunchilikni, ilmiy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish natijasida o'qotar qurolning asosiy qismlari bir butunlikda, yaroqli o'qotar qurol kabi jamiyat uchun bir xil real xavf tug'dirishi mumkinligini asoslantirib, ulardan bir qismining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilanmasligini asoslantirgan.

Dissertatsiyada qurollar g'ayriqonuniy muomalasidan iborat bo'lgan jinoyatlarni o'zgalar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlaridan, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish (JK 244¹-m.), bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish (JK 255¹-m.) va tarkibida qurol yoki qurol sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan vositalarni qo'llab sodir etilgan bo'lsa degan og'irlashtiruvchi holatlarga ega bo'lgan jinoyatlardan farqlash qoidalari ishlab chiqilgan.

To'rtinchi bobning "*Qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirish*" deb nomlangan ikkinchi paragrafda qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarliklarni nazarda tutuvchi jinoyat-huquqiy normalarni amalda qo'llashning, ya'ni amaldagi normalarda mavjud huquqiy bo'shliqlar, qarama qarshiliklar, bir-birini takrorlash holatlarini bartaraf etish va ular uchun tayinlanayotgan jazo turlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida jinoyat qonun hujjatlariga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

haqida takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotda JKning 247 va 248-moddalariga tegishli tartibda “ko‘p miqdorda” va “juda ko‘p miqdorda” zarar yetkazish bilan sodir etishni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida belgilash, AQSh, Fransiya, Xitoy, Rossiya jinoyat qonunchiligi tajribalari asosida O‘zbekiston Respublikasi JKning 248-moddasiga tegishli tartibda javobgarlikning og‘irlashtiruvchi holati sifatida “telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib sotish” uchun alohida javobgarlikni o‘rnatishni belgilash asoslangan.

Dissertatsiyada tadqiqot ishining uchinchi bobida tahlil qilingan xorijiy davlatlar jinoyat to‘g‘risidagi qonunchiliklarining ijobiy tajribasi asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 247-moddasi umuman yangi tahrirdagi loyihasi, 248-moddasiga sezilarli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston hududida ko‘p sonli qurollarning qonuniy muomaladan g‘ayriqonuniy muomalaga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda kelgusida ularni yangi usullarda sodir etilishi mumkinligining oldini olish maqsadida Rossiya, Belarus va Qozog‘iston tajribalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida “katta kalibrli o‘qotar qurol, uning asosiy qismlari va o‘q-dorilarining qonunga xilof muomalasi”, “o‘qotar qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qo‘riqlash bo‘yicha vazifalarni lozim darajada bajarmaslik”, “o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilarining markirovkasi (seriya va raqami)ni soxtalashtirish yoki ularni qasddan yo‘q qilish” va “Maxsus yoki harbiy texnikani yoxud maxsus vositalarni qonunga xilof ravishda egallash” uchun javobgarliklarni belgilovchi yangi jinoyat-huquqiy normalar ishlab chiqilgan.

XULOSA

Qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalari g‘ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. “qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalarning muomalasi”, “qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalarning g‘ayriqonuniy muomalasi», «qurollarni o‘zlashtirish”, “qurollarni rastrata qilish” tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvdagi quyidagicha mualliflik ta’riflari shakllantirildi va ularni milliy jinoyat huquqi fanida qo‘llanilishi asoslantirildi:

qurol, o‘qotar qurolning o‘q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalarning muomalas vakolatli davlat organining litsenziya va ruxsat berish tizimining yoxud maxsus

tashkilotlarning idoraviy nazorati ostida qonunlar, qonun osti hujjatlar va maxsus vakolatga ega bo'lgan idoralarning me'yoriy hujjatlari asosida qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalarini muayyan makonda va vaqt oraligida yaratish, ularni mavjud bo'lishi, turli usullarda harakatlanishi va yo'q qilinishi bilan bog'liq jarayondir;

qurol, o'qotar qurolning o'q-dorilari va asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalar yoki portlatish qurilmalarning g'ayriqonuniy muomalasi qonunlar, qonun osti hujjatlar va maxsus vakolatga ega bo'lgan idoralarning me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartib-taomillar va qoidalarni buzish yoki ulardagi ta'qiqga zid ravishda qurollarni muayyan makonda va vaqt oraligida yaratish, ularni mavjud bo'lishi, turli usullarda harakatlanishi va yo'q qilinishi bilan bog'liq jarayondir;

o'zlashtirish yo'li bilan egallash deganda, shaxsga huquqiy asoslarda ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zga qurollarni, huquqga xilof, o'rnini qoplamasdan, qaytarib bermaslik sharti bilan o'z foydasiga olib qo'yishdir;

rastrata qilish yo'li bilan egallash deganda– shaxsga huquqiy asoslarda ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zga qurollarni, huquqga xilof, o'rnini qoplamasdan, qaytarib bermaslik sharti bilan uchinchi shaxslar foydasiga begonalashtirish yoki sarf-harajat qilib yuborishdir.

2. Qurollarning g'ayriqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan jinoyat-huquqiy normalarning tarixiy-huquqiy rivojlanishi tahlili asosida ushbu ashyolarning xususiyati va ahamiyatidan kelib chiqib, qurollar bilan bog'liq munosabatlar quyidagicha:

XIX asr boshlarida, jamiyatning yuqori tabaqa vakillarining mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi munosabatalar;

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, qurol muomalasi bilan bog'liq munosabatlar ustidan davlat boshqaruvi tartibini belgilovchi munosabatlar;

XX asr boshlaridan jamiyatda qurolli ziddiyatlarning tobora avj olishi, fuqarolarning qo'lida g'ayriqonuniy saqlanayotgan qurollarning ko'payishi natijasida aholining hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish yoki shunday zarar yetkazish real xavfining yuqoriligi oshganligi bois javobgarlik masalalari kuchaytirilib, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi munosabatlar jinoyat to'g'risidagi qonunchiliklar bilan tartibga solinganligi asoslandi.

